

JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI

Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsent*

[Tel: +998914680710](tel:+998914680710)

[E-mail: nomozovnomozov2@gmail.com](mailto:nomozovnomozov2@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-6640-284>

Internet-makonning o'ziga xos ijtimoiy voqelik ko'rinishi sifatida qaror topishi, uning turli kontentlar evaziga mazmunan boyishi, mazkur resurslardan foydalanish sohalarining kengayishi shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. U shaxs ijtimoiylashuvining psixo-logik va ijtimoiy mexanizmlari xarakterini o'zgartirib yubordi. Buning ustiga, internet-makonning vujudga kelishi shaxs ijtimoiylashuvi institutlari turkumini yana bittaga ko'paytirdi. Shuning uchun ham internet-makonning ijtimoiy voqelik ko'rinishi sifatidagi fenomenal atributlari haqida fikr yuritganda uning shaxs ijtimoiylashuvi institutiga aylangani masalasini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Yangi izlanishlarning sharofati bilan "bugungi kunda ijtimoiylashuv muammolarini o'rganishda falsafiy, sotsiologik, ijtimoiy-psixologik va tarixiy-etnografik tahlil natijasida yaratilgan uslublar va yondashuvlar kompleksidan foydalanish tendensiyasi yuzaga kelmoqda"¹. Bu tendensiya, bir tomondan, shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining qonuniyatlarini aniqroq tasavvur qilish, ikkinchi tomondan, uning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini mufassal ifodalab berish, uchinchi tomondan, mazkur mexanizmlarni harakatga keltiruvchi ijtimoiy institutlarni tasniflash, to'rtinchi tomondan, bu institutlarning asosiy funksiyalarini bayon etish imkonini beradi.

• Mutaxassislar amalga oshirgan ilmiy izlanishlarning natijalariga tayanib mulohaza yuritadigan bo'lsak, har qanday jamiyatda shaxs ijtimoiylashuvi muayyan psixologik va ijtimoiy mexanizmlar asosida sodir bo'ladi. Tadqiqotchi O.M.Doroshenko o'zining "Shaxs ijtimoiylashuvi tushunchasi: omillari, mexanizmlari, bosqichlari" nomli maqolasida G.Tard, U.Bron-fenbrenner, N.Smelzer va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirgan holda mazkur mexanizmlarni mufassal tasvirlab beradi². Uning fikriga ko'ra, shaxs ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси комуси. Биринчи жилд. - Т.: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2019. - Б.454.

² Каранг: Дорошенко О.М. Понятие социализации личности: факторы, механизмы, этапы.// Психология и педагогика служебной деятельности, 2020, №1. - 12-16-с.

- imprinting – hayotiy muhim ahamiyatga molik obyektlarni ongosti darajasida in'ikos ettirish;
- ekzistensial bosim – turmush sharoitlarining insonga ta'siri;
- taqlid – ijtimoiy muhitda hukm surayotgan xulq-atvor modellariga ongli yoxud ongsiz ravishda ergashish;
- identifikatsiya – referent shaxslar va guruhlariga xos bo'lgan norma, qoida va qadriyatlarni kognitiv va xulq-atvor darajasida o'zlashtirish;
- refleksiya – individning o'z "Meni" bilan muloqoti, bu muloqot davomida u voqelikni anglab yetadi, muayyan xulq-atvor modelini tanlaydi va o'zi intilishi kerak bo'lgan kelajak timsolini yaratadi³.
- O.M.Doroshenko fikriga ko'ra, zamonaviy jamiyatda shaxs ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmlariga muqobil ravishda ijtimoiy mexanizmlari ham mavjud bo'ladi. Muallif o'z maqolasida bu mexanizmlarni ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilar ekan, ularni murakkab konglomerat sifatida tasvirlaydi. Jumladan, u zamonaviy sotsiumdagi *shaxs ijtimoiylashuvining ijtimoiy mexanizmlariga* quyidagilarni kiritadi:
 - ijtimoiylashuvning an'anaviy mexanizmi – mavjud normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarining yaqin atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo'lish orqali o'zlashtirilishi;
 - ijtimoiylashuvning institutsional mexanizmi - mavjud normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarining ijtimoiy institutlar (diniy, siyosiy, kasbiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari) bilan aloqada bo'lish orqali o'zlashtirilishi;
 - ijtimoiylashuvning stilizatsion mexanizmi - mavjud normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarining turli submadaniyatlar (ayrim ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan madaniyat) bilan aloqada bo'lish orqali o'zlashtirilishi;
 - ijtimoiylashuvning shaxslararo mexanizmi - mavjud normalar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarining alohida obro'-e'tibor va nufuzga ega shaxslar bilan aloqada bo'lish orqali o'zlashtirilishi⁴.

Shaxs ijtimoiylashuvining psixologik va ijtimoiy mexanizmlari qator *ijtimoiy institutlar* tomonidan harakatga keltiriladi. Xususan, insonning dastlabki ijtimoiylashuvi *oilada* boshlanadi. Aynan oilada bola kishilar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, xulq-atvor normalari va shaxs bajarishi lozim bo'lgan ijtimoiy rollar to'g'risida ilk tasavvurlarga ega bo'ladi. Bunday tasavvurlarning shakllanishi oila moliyaviy, maishiy, psixologik va madaniy salohiyatiga mutanosib ravishda kechadi. Moliyaviy imkoniyatlari kengroq, maishiy ahvoli qoniqarli, ma'naviy-ruhiy muhiti sog'lom, ota-onalarning madaniy saviyasi baland bo'lgan oilalarning farzand ongi va faoliyatiga ta'siri ham salmoqli bo'ladi. Moliyaviy tanqislik, maishiy yetishmovchilik,

³ Каранг: ўша ерда.- 15-с.

⁴ Каранг: Дорошенко О.М. Понятие социализации личности: факторы, механизмы, этапы.// Психология и педагогика служебной деятельности, 2020, №1.- 15-с.

nosog'lom muhit, ota-onalar ma'naviy dunyosidagi kamchiliklar bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida sezilarli iz qoldiradi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash zarurki, bola yetuklik davriga qadam qo'rganidan so'ng oilaning ijtimoiylashuvi jarayonidagi o'rni yo'qolmaydi. Oila insonning butun umri mobaynida davom etadigan ijtimoiylashuv jarayonining keyingi pallalarida ham shaxs bilim, norma va qadriyatlari tizimini muvofiqlashtirib boraveradi.

Shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida *ta'lim muassasalari* markaziy o'rin tutadi. Buning asosiy sababi shundaki, avvalo, ta'lim maskanlarining barkamol insonni shakllantirish bilan bog'liq strategik maqsadining o'zi bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirishni, jamiyatda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda faoliyat ko'rsatishga ko'niktirishni taqozo qiladi. Aslida ta'lim dargohlarida bolalarga har qanday bilim, g'oya, qadriyatlar singdirilishidan muddao ham ularni jamiyatga integratsiyasini ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, ta'lim maskanlaridagi (ayniqsa oliy ta'lim muassasalaridagi) tahsil shaxsga muayyan ijtimoiy maqomga erishish imkonini beradiki, bu maqom uni jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylantiradi. Eng muhimi, ta'lim muassasalari shaxsning ma'lum maqsadga bo'ysundirilgan hamda uning butun umri mobaynida davom etadigan ijtimoiylashuv mexanizmini harakatga keltiradi. Bu o'rinda ham bolalarning mazkur davrdagi ijtimoiylashuvi ta'lim maskanlarining moddiy-texnik, moliyaviy va intellektual salohiyatiga borib taqalishini eslatib o'tmog'imiz darkor.

Oila va ta'lim muassasasi shaxs ijtimoiylashuvi mexanizmining harakatga kelishiga, "ishga tushishiga" turtki beradi, xolos. Biroq bundan, ijtimoiylashuv jarayoni insonning yetuklik davriga qadam qo'rganidan so'ng intiho topadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu jarayon *mehnat jamoasida* o'z rivojini topadi. To'g'ri, oila va ta'lim maskanlarining ta'siri o'laroq, shaxs mehnat jamoasiga o'zlashtirilgan va shakllangan bilimlari, normalari, qadriyatlari va ehtiyojlari bilan keladi. Korxona va tashkilotdagi ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlari, mehnat jamoasidagi ma'naviy-ruhiy muhit, unda faoliyat ko'rsatayotgan jamoat tashkilotlari, jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteri esa bu bilim va normalarga muayyan o'zgartirishlar kiritadi, ularni jamoa a'zolarining bilim va normalari bilan muvofiqlashtiradi. Aynan mehnat jamoasida shaxs jamiyatning to'laqonli a'zosi, ma'lum ijtimoiy maqom egasi sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Shaxs ijtimoiylashuvida *davlatning* o'rni ayniqsa ahamiyatli. Uning shaxs ijtimoiylashuviga ta'sirining bir necha rakurslari mavjud. Birinchidan, davlat xarakterining o'zi ijtimoiylashuv mazmunini belgilab beradi. Ma'lumki, bu xarakter davlat rejimida o'z ifodasini topadi. Demokratik davlat rejimi hukm surgan mamlakatlarda shaxs ijtimoiylashuvi liberal shakl kasb etadi. Avtokratik va totalitar davlat rejimlari esa shaxs o'zlashtirishi mumkin bo'lgan bilim va normalarni cheklab qo'yadi – bu hol ijtimoiylashuv jarayonini muayyan qolipga solib qo'yadi. Ikkinchidan,

davlat boshqa ijtimoiylashuv institutlari (oilalar, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va h.k.) faoliyatini muvofiqlashtirib borar ekan, ijtimoiylashuv jarayonini umumijtimoiy manfaatlar, umume'tirof etilgan xulq-atvor normalari va qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Uchinchidan, davlat ma'lum maqsadlarga asoslangan holda fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri mafkuraviy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U yoki bu mafkura davlat mafkurasi sifatida e'tirof etilgan mamlakatlarda bu ta'sir uzluksiz xarakterga ega bo'ladi. Davlat mafkurasi mavjud bo'lmagan yurtlarda esa bu ta'sir anchayin demokratik xususiyat kasb qiladi. Ikkala holatda ham mafkuraviy ta'sir ham ijtimoiylashuv jarayoni xarakterini belgilab beradi.

Shaxs ijtimoiylashuvining psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini harakatga keltiruvchi yana bir ijtimoiy institut – mahalladir. Mahalla insonning hayotiy faoliyatiga asos bo'ladigan bilimlar, normalalar va qadriyatlarni, uning xulq-atvorini umumijtimoiy manfaatlar, axloqiy talablar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Biroq mahalla ijtimoiylashuv mexanizmlarini harakatga keltiruvchi institut darajasiga ko'tarilishi uchun undagi ma'naviy-ruhiy muhit sog'lom bo'lmog'i, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilmog'i lozim. Aks holda shaxs ijtimoiylashuvi mahalla ishtirokisiz sodir bo'ladi. Amaliyot ham bu fikrlarning to'g'riligini yaqqol ko'rsatib turibdi. "Qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan bo'lsa, o'sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo'l qo'yilmayapti"⁵.

Ijtimoiylashuv jarayoni *madaniyat muassasalari* ta'sirida takomil topadi. Adabiyot va san'at barcha zamonlarda, bir tomondan, jamiyatni taraqqiy toptiruvchi, ikkinchi tomondan esa, shaxsni jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylantiruvchi muhim omillardan biri bo'lib kelgan. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor - bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"⁶, - deb ta'kidlagan edi. Adabiyot va san'at durdonalarini esa shaxsga aynan *madaniyat muassasalari* yetkazadilar. Biroq mazkur muassasalar jamiyat a'zolarini ushbu *durdonalar* bilan shunchaki tanishtirish bilan cheklanmaydi. Kinoteatrlar, teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, suratlar ko'rgazmalari shaxsga ijodkorlar asarlarini taqdim qilar ekan, ularni jamiyatda hukm surayotgan g'oyalar, xulq-atvor normalari, qadriyatlarni o'zlashtirish, ajdodlarning ma'naviy merosidan voqif bo'lish imkonini ham beradi. Bu voqiflik pirovardida insonni sotsiumga integratsiya qiladi, o'zgaralar bilan hamjihatlikda turmush kechirishga tayyorlaydi.

⁵ Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни чуқурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш – халқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир.// Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.:Ўзбекистон, 2017.- Б.59.

⁶ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.//Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Ж.2.- Т.:Ўзбекистон, 2018.- Б.181.

Uchinchidan, ijtimoiy institutlar shaxsni ijtimoiy munosabatlarning layoqatli ishtirokchisiga aylantiradi. Ularning ta'siri ostida shaxs jamiyatda belgilangan xulq-atvor va muomala normalarini o'zlashtiradi hamda ular asosida o'zgaralar bilan turli aloqalarga kirishishga moslashadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy institutlar sharofati o'laroq bunday normalar haqidagi ma'lumotlarning to'planib borishi insonning ularga shaxsiy nuqtai nazarini ham qaror toptiradi. To'rtinchidan, ijtimoiy institutlar shaxsni asrlar davomida to'plangan ijtimoiy tajribalardan voqif qiladi, ularni o'zlashtirish imkonini taqdim qiladi. Bunday tajribalar pirovardida shaxsiy tajribalar tizimining vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Shaxsiy tajriba esa inson hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Beshinchidan, ijtimoiy institutlar shaxsga turli bilim va g'oyalarni taqdim etarkan, uning jismoniy, ruhiy hamda aqliy kamolotini ta'minlaydi. Boz ustiga, mazkur subyektlarning ta'siri insonga aynan ana shu sohalaridagi kamchiliklarini to'ldirish, yo'l qo'ygan hatolarini o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi. Oltinchidan, ijtimoiy institutlar insonni ijodkor shaxsga aylantiradi. Ular ta'sirida jamiyat a'zosi borliq qonuniyatlarini o'rganishga, sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini aniqlashga, o'z ruhiyati bilan bog'liq holatlarning asosiy sabablarini topishga intila boshlaydi.

Xullas, shaxs ijtimoiylashuviga doir nazariy xulosalar ko'rsatishicha, u nihoyatda chuqur va serqirra mazmunga ega bo'lgan, muayyan psixologik va ijtimoiy mexanizmlar yordamida yuz beradigan hamda turli ijtimoiy institutlar ta'sirida kechadigan uzluksiz jarayondir. Ahamiyatli va e'tiborni qaratish zarur bo'lgan tomoni shundaki, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida internet kontentlarining yagona makonda jamlanishi, uning o'ziga xos ijtimoiy voqelikka aylanishi, internet-makon resurslaridan tizimli foydalanishning avj olishi shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir ko'rsatishga qodir institutlar turkumini yana bittaga ko'paytirdi. Boshqacha aytganda, bugungi kunda internet-makon nafaqat jamiyatning turli sohalarida qo'llaniladigan kontentlar manbaiga, balki shaxsni jamiyat bilan integratsiya qiladigan institutga ham aylandi. *Internet-makonning shaxsni ijtimoiylashtiruvchi institutga aylanganini quyidagilarda ko'rish mumkin*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамова Ф.А. Ижтимоий психология.- Т., 2007.
2. Андреева И. М. Информационная культура личности как новая учебная дисциплина и новое направление культурологических исследований.// Информатизация и проблемы гуманитарного образования: Тезисы докл. Между-нар. науч. конф.- Краснодар, 1995.- С. 6-8.
3. Антонова С. Г. Информационная культура личности: вопросы формирования. // Высшее образование в России, 1994, № 1.- 82-89-с.
4. Аристотель. Никомахова этика.- М.:ЭКСМО-пресс, 1997.
5. Барышева С. Топ-5 цифровых музеев в России и мире.// vinchi-inter-active.ru, 2021, 16 декабря.
6. Бекмуродова Г.Х. Замонавий ижтимоий деструкция: мазмуни ва шакл-лари, Ўзбекистонда намоён бўлиш хусусиятлари: Фалс.ф.д. (DSc) дисс.- Бухоро: БухДУ, 2022.
7. Белл Д. Социальные рамки информационного общества.// Новая технологическая волна на Западе.- М.: Прогресс, 1986.- С. 330-342.
8. Бесцельный интернет серфинг – убийца времени.// elatriym.com